

YO'LDOSHEV OTABEK ABDUGANIEVICH

**BOSHLANG'ICH TA'LIM
PEDAGOGIKASI,
INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYA**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

YO'LDOSHEV OTABEK ABDUG'ANIEVICH

**BOSHLANG'ICH TA'LIM
PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA VA
INTEGRATSIYA**

(O'QUV QO'LLANMA)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Toshkent
"Yangi chirchiq prints"
2023

va
liy
y-
ni
n
k
a
a
r
.

UO'K 373;378
KBK 74.202.5
Y-60

O.A. YO'LDOSHEV. BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI,
INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYA [O'QUV QO'LLANMA].
- Toshkent "Yangi chirchiq prints", 2023 - 120 b.

Taqrizchilar:

Usarov Jabbor Eshbekovich - *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

T.L. Xurvalieva - *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

Ushbu o'quv qo'llanma boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiya jarayonida texnogen sivilizatsiyadan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini ochib berish, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda texnogen sivilizatsiya dan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 maydagi 232 - sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9965-4-2

KIRISH

Dunyoning etakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tekshirish markazlarida o'quvchilarning milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalari, ijodiy fikrlashini texnogen sivilizatsiya asosida rivojlantirish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jahonda texnologik taraqqiyot va unga asoslangan ijtimoiy o'zgarishlarga yo'naltirilgan texnogen sivilizatsiya lar hayotning barcha sohalaridagi global o'zgarishlar, ustuvor yangiliklar va shaxs akmeologik taraqqiyoti bilan ajralib turadi. YUNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "bilimning mustahkam poydevoriga ega bo'lish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish" dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan [1]. Texnogen rivojlanish bu vazifalarni amalga oshirish yo'lidagi ko'pgina ijtimoiy muammolarning hal etilishini ta'minlaydigan eng optimal yo'l va ratsional mexanizm ekanligini kichik maktab yoshidanoq o'quvchilar ongiga singdirishga oid xalqaro ta'lim dasuturlari talablari asosida uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini xalqaro darajada aniqlab beruvchi va mezon sifatida qo'llanib kelinayotgan PIRLS, TIMSS va boshqa tadqiqotlar natijasida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini, ilmiy asoslangan nazariy bilimlarini amaliy qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishda texnogen sivilizatsiya ning didaktik va ijtimoiy ta'sirini aniqlash taqozo etilmoqda. Bu ta'lim modelini tanlash, muloqot turlarini aniqlash, axborot va boshqaruv tizimini ishlab chiqish, ta'lim beruvchilar faoliyatini rejalashtirish, o'qitishning shakl, metod va vositalarini oqilona tanlashga asoslangan integratsion darslarni loyihalashning o'ziga xosliklarini aniqlashtirish

lozim ekanligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimining tubdan isloh qilish, texnogen sivilizatsiyaning zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv mazmuniga singdirish, boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda ilg'or ta'lim texnologiyalarini qo'llashning uslubiy mexanizmlarini aniqlash, texnogen mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalq ta'limi sohasida "Umumiy o'rta ta'limni tashkil etishning yangicha texnologiyalari, vositalari va shakllarini ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va ekspertiza qilishda ishtirok etish" kabi ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini rivojlanishida texnogen sivilizatsiyaning o'rnini tadqiq etish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda texnogen sivilizatsiyaning imkoniyatlaridan foydalanib kelinayotgan bo'lsada, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiya jarayonida texnogen sivilizatsiyadan foydalanish imkoniyatlari hamda o'quv jarayoni samaradorligini oshirish jihatlari pedagogik muammo sifatida tadqiq etilmagan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiya jarayonida texnogen sivilizatsiyadan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini ochib berishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda texnogen sivilizatsiyadan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari axborotli ta'lim muhitida ta'lim vositalari modifikatsiyalaridan o'quvchilar faolligiga ta'sir etuvchi qulay vizuallik, tashkiliy-gigienik kabi tashqi hamda ongli qayta ishlash, mantiqiylik, izlanuvchanlik va o'zlashtirish kabi ichki omillar barqarorligini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan; texnogen sivilizatsiya imkoniyat-laridan foydalanish

vositasida ta'lim samaradorligini oshirish modeli boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik-psixologik jihatlari inobatga olingan o'quv-tarbiyaviy muhitda axborot shakli va vositasini erkin tanlash tamoyiliga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan; boshlang'ich ta'limda texnogen sivilizatsiyadan foydalanishning klasterli mexanizmlari fanlar xususiyatiga mos axborotli kontentni mustaqil tayyorlashning yakka va jamoaviy ta'lim shakllariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan; texnogen sivilizatsiya yutuqlaridan samarali foydalanish vositasida o'quvchilarda fanlarga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik ta'minoti texnogen jarayonda yuzaga keladigan shaxslararo jonli muloqotga ehtiyoj muammosini hal etishga ta'lim klasterini qo'llash asosida takomillashtirilgan.

I-BO'LIM

BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI

I-BOB

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tushunchasining mazmuni

1.1-§. Texnogen sivilizatsiya: tushunchaning mohiyati, kategorial tahlili, metodologik asoslari

Jahon tajribasidan ma'lumki, insoniyat tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichida texnogen sivilizatsiya jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilab bergan. Kishilik jamiyati taraqqiy etgan sari uning ta'sir doirasi kengayib, yangi sifat darajalariga ko'tarilgan. Ta'kidlash kerakki, texnogen sivilizatsiya ning globallashuvi, jumladan bir qator kompyuter texnikasi, mobil aloqa vositalari, internet tarmog'ining inson ongi ustidan hukmronlik qilishi kabi, kutilmagan salbiy oqibatlarni yuzaga keltirmoqda. Dunyoni o'zgartirish va tabiatni insonga bo'ysundirish g'oyasi texnogen sivilizatsiya ning ilk davridan to hozirgi bosqichigacha ustuvor bo'lib kelgan va tevarak-atrofga bo'lgan bunday faol munosabat ijtimoiy munosabatlar sohasida ham o'z ifodasini topmoqda.

"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" tushunchasi. O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
 - boshlang'ich ta'limni ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish;
 - boshlang'ich ta'lim samaradorligiga erishish.
- Mazkur vazifalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida

o'qitilayotgan "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" fanining mazmunini belgilaydi.

Unga ko'ra, mazkur fanning *mazmuni* boshlang'ich ta'lim, tarbiya va uni o'qitish asoslari bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarga nazariy bilim, ko'nikma hamda malaka berishdan iborat. Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- *boshlang'ich ta'lim* tushunchasi quyidagilarni qamrab oladi:

- 1) inson va jamiyat qadriyatlariga asosan 7-11 yoshli o'quvchilarga bilim berish;
- 2) boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash jarayoni;
- 3) boshlang'ich ta'limning samarasiga erishish;
- 4) boshlang'ich ta'limni yaxlit tizim sifatida qabul qilish.

- *boshlang'ich ta'limda tarbiya* tushunchasi quyidagilarni ifodalaydi:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchilariga insoniyatning tarbiyaga oid tajribasini uzatish;
- 2) boshlang'ich sinf o'quvchilarini madaniyat va qadriyatlar olamiga olib kirish;
- 3) boshlang'ich sinf o'quvchilarini shaxsini rivojlantirish;
- 4) boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini hayotning murakkab vaziyatlari va holatlariga tayyorlash.

- *boshlang'ich ta'limda o'qitish* tushunchasining mazmuni quyidagilardan iborat:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim, hayotiy tajriba, faoliyat ko'nikmasi berish va ularning tafakkurini shakllantirish;
- 2) boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malaka hislarini shakllantirish;
- 3) boshlang'ich sinf o'quvchilarining xotira, diqqat va